



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№12
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 140 sahifa,
2-dekabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Yangi O'zbekiston sharoitida ayollar ijtimoiy faolligini oshirishda psixologik motivatsiya va o'z-o'zini rivojlantirish strategiyalari	26
Xuseynova Abira Amanovna	
Pragmalinguodidactic Principles in Teaching English for Philologist Students and their Application in Intercultural Communication.....	31
Arzieva Bibi-Sanem Aynazarovna	
Metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan biologiya o'quv materiallarini loyihalash, joriy etish va samaradorligini baholash.....	35
Abdurasulova Gulrux Habibullayevna	
Oligofreniya holatida neyropsixologik tashxislar qo'llanilishining umumiy masalalari	40
Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li, Xojaliyeva Sarvinov Elyorjon qizi	
Oliy ta'lim muassasalari talabalarida kreativ kompetensiyani rivojlantirish pedagogik muammo sifatida ...	44
Asatova Dildora Aslamovna	
Ingliz tili o'qish ko'nikmalarini takomillashtirishda autentik manbalarning roli.....	49
Bekmuratova Nargiza Arislanbayevna	
Insuldan keyingi nutqni tiklashda logopedik rehabilitatsiya va nevrologik muolajalar integratsiyasi	52
Boltaboyeva Xurshida Sharofiddinovna	
The Concept of Symbols in Linguoculturology	56
Hamraqulova Gulandom Sodiq qizi	
Buyuk ipak yo'li xalqlari o'rtasidagi pedagogik va madaniy aloqalarning vujudga kelishi.....	59
Mirxalilova Nargiza Akbarovna	
Bo'lajak tarbiyachilarni bolalarni nutqini o'stirishga bo'lgan kasbiy-pedagogik tayyorgarligini o'stirish	63
Mitaliboyeva Dildora	
Koxlear implantli bolalarning eshituv–nutqiy faolligini oshirishda differensial yondashuv asosida korreksion-pedagogik ish	66
Nartayeva Shahnova Yulchibayevna	
Fasilitatsion yondashuv asosida kichik maktabgacha yoshdagi bolalarda adaptiv ko'nikmalarni rivojlantirishning psixologik-pedagogik mexanizmlari.....	71
Normatova Nilufar Komilovna	
Boshlang'ich sinflarda disgrafiyasi bo'lgan o'quvchilarda yozish kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari (XIX–XXI asrlarda).....	76
Qaxxorova Saidaxon, Mamarajabova Zulfiya	
Raqamli texnologiyalar va onlayn platformalar orqali olimpiya ta'limini rivojlantirish: yoshlar orasida axloqiy va jismoniy madaniyatni oshirish	80
Qodirov Jurabek Mamatsimonovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sun'iy intellekt bilim va savodxonligini rivojlantiradigan innovatsion jismoniy-interaktiv o'yinlar: pedagogik model	83
Quvonova Nodirabegim Shavkat qizi	
“Sab'ai sayyor” asarida qo'llangan onomastik birliklar haqida mulohazalar	87
Gadayev Oybek Yaxshiboyevich, Ravshanova Sharbatoy Rahmatilla qizi	
Ijtimoiy tarmoq shifokorlarining masofaviy konsultatsiyalari shaxs psixikasi va salomatligiga ta'siri	91
Askarova Nargiza Abdivaliyevna, Ravshanova Zarnigor Daminovna	
Talabalar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalari va interfaol metodlardan foydalanish.....	95
Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'g'li	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali pedagoglarning kreativligini rivojlantirish	99
Saydullayeva Gulasal Umidjon qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalar motorikasini rivojlantirishning standart modeli	102
Sirojiddinova Xamidaxon Xasanboy qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarning shaxslararo munosabat kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	106
Turg'unova Gulnoza Muhammadjonovna, Xodjiyeva Mahliyo	



Shaxsdagi mehnat motivatsiyasi samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi korrelyatsion bog'liqliklar tahlili	109
Xusanov Samariddin Maxmadaminovich	
Auditoriyadan tashqari musiqiy mashg'ulotlarni art-terapiya yordamida tashkil etish asoslari	112
Yarashev Jo'rabek To'rayevich	
Формирование творческого мышления школьников на уроках музыки	117
Габдульманова Ильнура Минисламовна	
Теоретико-методологические основы коллаборативного обучения, кооперативных подходов и интерактивных педагогических методов	119
Жураева Мафтуна Бахтиёр кизи	
Педагогическое колесо как инструмент формирования цифровой компетентности будущих педагогов дошкольного образования.....	124
Уразова М. Б., Усманова У. Б.	
Особенности гражданского воспитания обучающихся в системе "школа–махалля" в Узбекистане ..	130
Хайдаров Шавкат Шамсиддин угли	
Педагогические условия формирования языковой грамотности у учащихся с тяжелыми нарушениями речи.....	135
Юсупова Зулайхо Бахром кизи	



SHAXSDAGI MEHNAT MOTIVATSIYASI SAMARADORLIGINI TA'MINLASHGA XIZMAT QILUVCHI KORRELYATSION BOG'LIQLIKLAR TAHLILI

Xusanov Samariddin Maxmadaminovich

University of Business and Science Toshkent filiali o'qituvchisi,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada shaxsning mehnat motivatsiyasi samaradorligini belgilovchi psixologik omillar va ular o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqliklar o'rganildi. Mehnat motivatsiyasi zamonaviy ishlab chiqarish jarayonida xodimning ishga munosabati, mehnat unumdorligi va kasbiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim shaxsiy resurs sifatida qaraladi. Tadqiqot davomida ichki va tashqi motivlar, kasbiy kompetensiyalar, ishga qoniqish darajasi, maqsadga yo'naltirilganlik, o'zini boshqarish qobiliyati kabi psixologik ko'rsatkichlar o'zaro statistik tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: motivatsion omillar, mehnat motivatsiyasi, ehtiyoj, maqsad, ruhiy tayyorgarlik, natija, harakat, tashabbus, mukofotning qiymati, qoniqish adolatli mukofot, ichki va tashqi mukofot.

Abstract: This article examines the psychological factors that determine the effectiveness of an individual's work motivation and the correlational relationships between them. Work motivation is considered an important personal resource that directly influences an employee's attitude toward work, productivity, and professional development in modern production processes. During the study, psychological indicators such as internal and external motives, professional competencies, job satisfaction level, goal orientation, and self-regulation ability were statistically analyzed in relation to one another.

Key words: motivational factors, work motivation, need, goal, psychological readiness, outcome, action, initiative, reward value, satisfaction, fair reward, intrinsic and extrinsic reward.

Аннотация: В данной статье исследуются психологические факторы, определяющие эффективность трудовой мотивации личности, а также корреляционные взаимосвязи между ними. Трудовая мотивация рассматривается как важный личностный ресурс, который напрямую влияет на отношение сотрудника к работе, производительность труда и профессиональное развитие в современных производственных процессах. В ходе исследования были статистически проанализированы такие психологические показатели, как внутренние и внешние мотивы, профессиональные компетенции, уровень удовлетворённости трудом, целевая направленность и способность к саморегуляции.

Ключевые слова: мотивационные факторы, трудовая мотивация, потребность, цель, психологическая готовность, результат, действие, инициатива, ценность вознаграждения, удовлетворённость, справедливое вознаграждение, внутреннее и внешнее вознаграждение.

KIRISH

Jahonda mehnat motivatsiyasining pasayishi keng tarqalgan muhim fenomenlardan biri bo'lib, bu bir nechta ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik omillar bilan bog'liq. Jahon Iqtisodiy Forumi prognozlariga ko'ra, "2025-yilga borib yangi texnologiyalar mehnat bozoridan 85 million ish o'rinlarini siqib chiqaradi va 100 millionga yaqin yangi ish o'rinlarini yaratadi, ular esa eskilari qanchalik tez yo'q bo'lib ketishi bilan solishtirganda ancha sekin paydo bo'ladi. Kelgusi yillarda ortiqcha ish o'rinlari 15 % dan 9 % ga kamayadi, yangi kasblar bo'yicha ish o'rinlari esa 13,5 %gacha ko'tariladi"^[8]. Bu borada bozor iqtisodiyoti sharoitida korxona va tashkilotlar birlamchi muvaffaqiyatini ta'minlovchi shaxsning mehnat motivatsiya shakllaridan unumli foydalanishi masalalariga e'tibor qaratish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu talab esa shaxsda mehnat motivatsiyasi shakllanishining ijtimoiy-psixologik determinantlari muammosini dolzarb ahamiyatli sifatida ilmiy tadqiq etish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda insonlardagi mehnat motivatsiyasi samaradorligini oshirishga katta ahamiyat berilib, zarur huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi: "Iqtisodiy faol aholining 9,6 foiz, ya'ni 1441 856 nafari ishsiz hisoblanadi"^[1]. Bu ko'rsatkichga yurtimizda mehnat qobiliyatiga ega lekin ishlab chiqarishdan ajralgan

holda ta'lim olayotganlar, tug'ruq ta'tilidagi yoki 2 yoshgacha bolalarini parvarishlayotgan ayollar va ishlashni xohlamaydigan yoki darhol ishga joylashishga imkoniyati yo'q aholini o'z ichiga oladi. Ammo hozirgi kunda davlat tomonidan olib borilayotgan ishsizlikni tugatish bo'yicha keng chora-tadbirlarga qaramasdan ishsizlik ko'rsatkichlariga mehnat motivatsiyasi yetishmayotgan mehnatga layoqatli shaxslar ham yuqoridagi ko'rsatkichning sezilarni qismini tashkil qilishi salbiy holatni ifoda etadi. Bu borada mehnat motivatsiyasi muhim hayotiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanishini inobatga olib, insonlardagi mehnat motivatsiyasi bo'yicha yangicha ilmiy yondashuvni va zarur ishlanmalarni yaratishda mazkur mavzu davr talabi sifatida ilmiy tadqiq etish uchun zarur asos bo'lib xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

E.M. Ivanova mehnat faoliyatini murakkab, ko'p atributli tizim sifatida belgilaydi, uning birlashtiruvchi komponenti mehnat predmeti bo'lib, uning o'ziga xos xususiyatlarining xilma-xilligini hisobga olgan holda tizimning barcha tarkibiy qismlarining o'zaro ta'sirini ta'minlaydi [3].

O. A. Konopkin faoliyatni o'z-o'zini tartibga solishni o'rganish aspektida quyidagi komponentlar majmua-sidan foydalanadi: maqsad - shartlar modeli - dastur - muvaffaqiyat mezon - natijalar to'g'risida ma'lumot - tuzatish to'g'risida qaror [4].

Mehnatda shaxsni shakllantirish muammosi turli nuqtai nazardan va turli yo'llar bilan hal qilinadi. Bunday istiqbolli yo'nalishlardan biri - O.V. Kuzmina tomonidan ishlab chiqilgan kasbiy faoliyatning muvaffaqiyat yo'na-lishidir [5]. Olimaning qarashlari bir boshqalarga qaraganda foydalilik ko'rsatkichi yuqoriligi bilan alohida e'ti-borga loiqdir.

V.D. Shadrikov, V.A. Bodrov, K.A. Markova G.M. Andreeva [7] va boshqalar faoliyat kontseptsiasining ijtimoiy-psixologik salohiyatini tahlil qilib, shunday xulosaga kelishadilar: "Faoliyatning funksional taqsimoti tomonidan emas, balki uning ichida tug'ilgan munosabatlar tomonidan ko'rib chiqiladigan tashqi amaliy faoliyat ta'lim sifatida namoyon bo'ladi. Bu dastlab psixologik tarkibiy qismga ega. Inson va inson mehnatining o'z-o'zini rivojlantirishi ko'proq tanlash imkoniyatlarining paydo bo'lishi, harakat va barcha faoliyat erkinligi darajasining oshishi bilan bog'liq. Bularning barchasi tanlash va shuning uchun o'z faoliyatini rejalashtirish qobiliyatining rivojlanishi bilan birga bo'lib, inson ongini va uning maxsus mehnat subektivligini shakllantirishga xizmat qildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ilmiy bilishning eng umumiy metodologik tamoyillari – dialektika tamoyillari (taraqqiyot, umumiy o'zaro bog'lanish va b.) dan tashqari tadqiqotimizning xususiy metodologiyasini – determinizm, tizimlilik tamoyili, shaxs nuqtai nazaridan yondashish tamoyillari, shuningdek, Maslou ehtiyojlar ierarxiyasi, Kleyton Alderferning ERG nazariyasi, Devid Makkelandning Ortirilgan ehtiyojlar nazariyasi, Motivatsiyaning asosiy protsessual nazariyasi va A.N.Leontevning subyekt faoliyati prinsipi nazariyalaridan ilmiy metodologik ma'lumotlar olindi. Tadqiqotimizning ushbu qismida mazkur nazariy yondashuvlarning asosiy g'oyalari va tamoyillari tadqiqot vazifa-lari doirasida qanday tarzda ro'yobga chiqarilishi xususida mulohaza yuritiladi.

Ma'lumki, determinizm (lot.determinare-belgilab berish, taqozo etish) tamoyili moddiy va ma'naviy olam hodisalarining obyektiv qonuniy ravishda o'zaro bog'liqligi va bir-birini taqozo etishini nazarda tutadi. Ushbu tamoyil asosida sababiyat haqidagi g'oya-turli hodisalar o'rtasida shunday aloqadorlik mavjudki, bunday muno-sabat vaziyatida tegishli shart-sharoitlar mavjud bo'lganda, qandaydir hodisa doimiy ravishda boshqa qandaydir hodisani yuzaga keltiradi degan g'oyani tashkil etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Dj. Rotterning "Subyektiv nazorat darajasini aniqlash" metodikasi hamda Gerbachevskiyning "Intilish darajasini aniqlash metodikasi" orasida korrelyatsion aloqadorliklar aloqadorliklariga muvofiq barcha ko'rsat-kichlarda musbat hamda manfiy korrelyatsion aloqadorlik mavjudligi aniqlandi. Xususan, muvaffaqiyatga intilish hamda kognitiv motiv ($r=0,153$; $p<0,01$), o'z-o'zini hurmat qilish ($r=0,129$; $p<0,05$), ixtiyoriy harakat ($r=0,197$; $p<0,01$), sizning potinsialingiz ($r=0,203$; $p<0,01$), harakatlarning safarbarligi ($r=0,185$; $p<0,01$); ishlab chiqarish integral shkalasi hamda kognitiv motiv ($r=0,145$; $p<0,01$), ixtiyoriy harakat ($r=0,175$; $p<0,01$), sizning potinsi-alingiz ($r=0,114$; $p<0,05$), kutulayotgan natijalar ($r=0,164$; $p<0,01$), natijalar namunasi ($r=0,145$; $p<0,05$) ko'rsat-kichlarida ijobiy aloqalar chiqqan bo'lsa, natijalar ahamiyati ($r=-0,148$; $p<0,01$) va erishilgan natijalar ($r=-0,112$; $p<0,05$) shkalalarida salbiy aloqalarning chiqqanligini ko'rishimiz mumkin.

Muvaffaqiyatga intilish shkalasi shaxsning maqsadlarini belgilashi va ularga erishish uchun motivatsiya yaratishi mumkin. Kognitiv motiv shkalasi esa shaxsning yangi ma'lumotlarni o'rganish va o'z bilimlarini kengay-tirishga bo'lgan ishtiyoqini ifodalaydi. O'z navbatida, muvaffaqiyatga intilish bu o'rganish jarayonida ko'proq qiziqish va faoliyatni oshiradi. Muvaffaqiyatga intilish shkalasi shaxslarni o'z salohiyatlarini oshirishga undaydi.



1-jadval: Dj. Rotterning “Subyektiv nazorat darajasini aniqlash” metodikasi hamda Gerbachevskiyning “Intilish darajasini aniqlash metodikasi “ orasida korrelyatsion aloqadorliklar (n=314)

Subyektiv nazorat darajasini aniqlash	Intilish darajasini aniqlash metodikasi								
	kognitiv motiv	o'z-o'zini hurmat qilish	natijalar ahamiyati	ixtiyoriy harakat	erishilgan natijalar	sizning potentsialingiz	harakatlarning safarbarligi	kutulayotgan natijalar	natijalar namunasi
Muvaffaqiyat ga intilish	,153(**)	,129(*)	-,148(**)	,197(**)	-,094	,203(**)	,185(**)	,077	,055
ishlab chiqarish integral shklasi	,145(**)	,094	-,075	,175(**)	-,112(*)	,144(*)	,044	,164(**)	,145(*)

* statistik tafovutlar mavjud

Kognitiv motiv shkalasi esa ularni o'z mahoratlarini kengaytirishga, yangi ko'nikmalarni o'rganishga va o'zgarishga tayyor turishga rag'batlantiradi. Bu jarayonlar birgalikda shaxsning umumiy muvaffaqiyatiga hissa qo'shadi.

Muvaffaqiyatga intilish, o'z-o'zini hurmat qilish, ixtiyoriy harakatlar, potentsialingizni anglash va harakatlarning safarbarligi shkalalari o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjud va tahlillar 1-jadvalda o'z aksini topgan.

Ixtiyoriy harakatlar muvaffaqiyatga erishishda zaruri qadamdur. Maqsadlar belgilanganidan so'ng, ularni amalga oshirish uchun kerakli harakatlarni rejalashtirish va bajarish zarur. Ixtiyoriy harakatsiz hech bir motiv o'zining natijaviyligini ko'rsatmaydi.

O'z potentsialingizni aniqlash, muvaffaqiyatga intilishingizni yanada kuchaytiradi. Potentsialingizni anglash, o'z kuchli tomonlaringizni aniqlash va ularni rivojlantirish imkonini beradi. Shaxs o'zining imkoniyatlariga adiqvat baho bera olsagina oldiga qo'ygan maqsadlarga erisha oladi.

Harakatlarning samaradorligini baholash zarur bo'lsa, o'z strategiyalaringizni o'zgartirish uchun harakatlarning safarbarligi shkalalari qo'llaniladi. Bu, harakatlaringizning muvaffaqiyatga qanchalik yaqinligini aniqlashda yordam beradi. Harakatlarning samaradorligini oldindan ko'ra bilish bu shaxsning mehnat unumdorligiga bevosita ta'sir qiluvchi unsurdur.

Muvaffaqiyatga intilish va natijalar ahamiyati shkalasida salbiy aloqa ko'rinishi mumkin, va bu jarayonda bir qancha omillar muhim rol o'ynaydi. Birinchidan muvaffaqiyatga intilish jarayonida biror marta muvaffaqiyatsizlikka uchrasa, bu insonning motivatsiyasini pasaytirishi va natijalarni baholashda salbiy fikrlarga olib kelishi mumkin. Natijada, inson kelajakdagi harakatlariga shubha bilan qarashi mumkin. Ikkinchidan, agar natijalar kutgan darajada bo'lmasa, bu o'z-o'zini hurmat qilishni kamaytirishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, shaxsning mehnat motivatsiyasi samaradorligi bir qator psixologik omillar bilan uzviy bog'liq. Ichki motivatsiya, kasbiy kompetensiyalar, ishga qoniqish, maqsadga yo'naltirilganlik va o'zini boshqarish qobiliyati mehnat faoliyatining yuqori samaradorligini ta'minlovchi yetakchi omillar sifatida namoyon bo'ldi. Korrelyatsion tahlil ushbu omillarning o'zaro mustahkam bog'liqligini ochib berdi hamda motivatsion tizimning kompleks, ko'p omilli tuzilishga ega ekanini ko'rsatdi.

Tadqiqotdan olingan natijalar xodimlarning mehnat faolligini oshirish, ularning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va tashkilotlarda samarali boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqishda amaliy ahamiyatga ega. Shuningdek, mehnat motivatsiyasining psixologik mexanizmlarini chuqur anglash inson resurslarini boshqarish jarayonida ilmiy asoslangan yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi. Mehnat bozori vaziyatiga oid ma'lumotlar (mehnat resurslari balansi) <https://data.egov.uz/data/61025aa22a2e256d868e82ef>
2. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlariga to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 02.09.2019 yildagi O'RQ-562-son. <https://lex.uz/docs/-4494849>
3. Иванова Е.М. Психология профессиональной деятельности. – М.: ПЕР СЕ, 2006. – 176 с.
4. Конопкин О.А. Общая способность к саморегуляции как фактор субъектного развития // Вопросы психологии. – 2004. – №2. – 127 с.
5. Кузмина О. В. Проблемы профессиональной подготовки специалиста в современных социально-экономических условиях // СПО. 2009. – 9 с.
6. Пряжников Н.С. Мотивация трудовой деятельности М.: Издательский центр “Академия”, 2008
7. Шадрин В.Д. Психология деятельности и способности человека. Учебное пособие, 2-е изд, перераб. и доп. – М.: Издательская корпорация “Логос”, 1996. – 129 с.
8. Мировой рынок труда в условиях глобализации: тенденции развития и проблемы регулирования. b25-song-bin.pdf.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.